

**O‘ZBEK TILI IZOHLI LUG‘ATLARIDA MA’NAVIY LEKSIKANING
BERILISHI VA TALQIN MUAMMOLARI****Abduraxmanova Rushana Anvar qizi***Chirchiq davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi**3-bosqich talabasi*rushanaanvarovna10@gmail.com**Q.A.Mo‘yidinov***Ilmiy rahbar: f.f.f.d., dotsent*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida ma’naviy leksikaning representatsiyasi va semantik talqini masalalari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida ma’naviy-semantik maydonga mansub leksemalarning turli lug‘atlardagi izohlari o‘rganildi va misollar bilan tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviy leksika, semantik maydon, leksema, interpretatsiya, denotatsiya, konnotatsiya, lug‘atshunoslik, kognitiv tilshunoslik.*

Аннотация. *В данной статье с лингвистической точки зрения анализируются вопросы представления и семантической интерпретации духовной лексики в толковых словарях узбекского языка. В ходе исследования были изучены и проанализированы на примерах пояснения лексем, относящихся к духовно-семантическому полю, в различных словарях.*

Ключевые слова: *духовная лексика, семантическое поле, лексема, интерпретация, денотация, коннотация, лексикография, когнитивная лингвистика.*

Abstract. *This article analyzes the issues of representation and semantic interpretation of spiritual lexicon in explanatory dictionaries of the Uzbek language from a linguistic point of view. In the course of the research, the explanations of lexemes belonging to the spiritual-semantic field in various dictionaries were studied and analyzed with examples.*

Keywords: *spiritual vocabulary, semantic field, lexeme, interpretation, denotation, connotation, lexicography, cognitive linguistics.*

Zamonaviy tilshunoslikda leksik qatlamni tizimli o‘rganish, ayniqsa, semantik jihatdan murakkab birliklarni tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida izohli lug‘atlar til birliklarining semantik strukturasi aks ettirishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, ma’naviy leksikaning izohli lug‘atlardagi representatsiyasi masalasi alohida ilmiy e’tiborni talab etadi. Ular orqali jamiyatning qadriyatlar tizimi, axloqiy me’yorlari va konseptual dunyoqarashi ifodalanadi. Shu bois,

bunday birliklarning lug‘atlarda qanday talqin qilinishi ularning semantik mohiyatini to‘liq ochib berishda muhim omil hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida lug‘atshunoslik sohasi til boyligini tizimli ravishda o‘rganish va tartibga solishda muhim o‘rin tutadi. Izohli lug‘atlar til birliklarining ma‘nosini ochib berish, ularning qo‘llanish xususiyatlarini ko‘rsatish orqali nafaqat lingvistik, balki madaniy-ma‘naviy axborotni ham aks ettiradi. Shu jihatdan, ma‘naviy mazmunga ega bo‘lgan leksik birliklarning lug‘atlarda qanday berilishi masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ma‘naviy leksika insonning axloqiy qarashlari, qadriyatlarini, ichki dunyosi va ijtimoiy munosabatlari bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalaydi. Bunday birliklarning izohli lug‘atlardagi talqini ularning mazmunini to‘liq va aniq ochib berishga xizmat qilishi lozim. Biroq ayrim hollarda bu turdagi leksemalarning izohlanishida umumiylik, noaniqlik yoki semantik yetishmovchiliklar uchraydi.

Leksika tilning eng muhim qatlamlaridan biri bo‘lib, unda jamiyatning tarixiy, madaniy va ma‘naviy tajribasi mujassam bo‘ladi. Ma‘naviy leksika esa aynan insonning ichki olami, axloqiy me‘yorlari va qadriyat tizimini ifodalovchi birliklarni o‘z ichiga oladi. Izohli lug‘atlarning asosiy vazifasi — so‘zlarning ma‘nosini aniq, tushunarli va ilmiy asosda izohlashdir. Bu jarayon “talqin” yoki “interpretatsiya” deb ataladi. Talqin jarayonida so‘zning asosiy ma‘nosi, qo‘shimcha semantik qirralari, stilistik xususiyatlari va qo‘llanish doirasi ochib berilishi lozim. Lug‘atshunoslikda izohning aniqligi, to‘liqligi va tizimliliigi asosiy mezon sifatida qaraladi. Ayniqsa, ma‘naviy leksikani izohlashda nafaqat lingvistik, balki madaniy va kontekstual omillarni ham hisobga olish zarur. Ma‘naviy leksika semantik maydon nazariyasi doirasida qaralganda, u o‘ziga xos konseptual birliklar tizimini tashkil etadi. Bunday birliklarning ma‘nosi ko‘pincha ko‘p qatlamli bo‘lib, denotativ (asosiy ma‘no) va konnotativ (qo‘shimcha, baholovchi ma‘no) komponentlardan iborat bo‘ladi⁴. Tadqiqot davomida ma‘naviy-semantik maydonga mansub ayrim leksemalar izohli lug‘atlardan tanlab olinib, ularning interpretatsiyasi qiyosiy tahlil qilindi. Masalan, “halol” leksemasining ayrim lug‘atlardagi izohi faqat denotativ ma‘no bilan cheklanib, “toza, ruxsat etilgan” tarzida berilgan.⁵ Biroq bu izohda uning aksiologik va normativ komponentlari, ya‘ni ijtimoiy baholash xususiyati yetarli darajada aks ettirilmagan. “Gunoh” leksemasining talqinida esa semantik umumlashtirish kuzatiladi. Ayrim lug‘atlarda u “noto‘g‘ri xatti-harakat” sifatida izohlangan bo‘lib, bu izoh leksemaning konseptual chuqurligini to‘liq ochib bermaydi. Chunki mazkur birlik insonning ichki baholash tizimi va axloqiy ongiga bevosita bog‘liqdir. “Sabr” leksemasi tahlilida esa konnotativ komponentning yetishmasligi kuzatildi. Uning izohi ko‘pincha “chidam” bilan chegaralanib, irodaviy va ruhiy holat sifatidagi jihatlari keng

⁴ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2006.

⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

yoritilmagan. Bundan tashqari, “iymon” leksemasining ayrim lug‘atlardagi izohi faqat “ishonch” bilan chegaralanadi⁶. Holbuki, bu birlikda ishonch bilan birga ichki e’tiqodiy barqarorlik, ruhiy qat’iyat va qadriyatga sodiqlik kabi konnotativ komponentlar ham mavjud. “Savob” leksemasi esa ba’zi lug‘atlarda “yaxshi ish uchun beriladigan mukofot” sifatida izohlanadi⁷. Bu yerda mukofot komponenti ajratib ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, uning rag‘batlantiruvchi va normativ-funksional jihatlari to‘liq yoritilmagan. “Vijdon” leksemasining talqinida ham muayyan muammolar mavjud. U ko‘pincha “insonning ichki nazorati” sifatida izohlanadi. Biroq bu izohda leksemaning baholovchi, reflektiv va psixologik funksiyalari yetarli darajada ochilmagan. “Shukr” leksemasi ayrim manbalarda “minnatdorlik bildirish” sifatida beriladi⁸. Lekin bu yerda uning emotsional-ekspressiv komponenti hamda qadriyatni anglash bilan bog‘liq semantik jihatlari yetarli aks etmagan. Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy leksikaning izohlanishida quyidagi muammolar mavjud:

- izohlarning umumiy va yuzaki berilishi;
- semantik qirralarning to‘liq ochib berilmasligi;
- turli lug‘atlar o‘rtasida tafovutlarning mavjudligi;
- kontekstual va stilistik ma’lumotlarning yetishmasligi, tahlillar asosida aytish mumkinki,

ma’naviy leksikani izohlashda an’anaviy yondashuvlar ba’zan yetarli natija bermaydi. Chunki bunday birliklar faqat lug‘aviy ma’no bilan cheklanmaydi, balki kengroq madaniy va psixologik mazmuni ham o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili izohli lug‘atlarida ma’naviy leksikaning berilishi va talqinida ayrim kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Ushbu kamchiliklar, asosan, izohlarning umumiyliigi, semantik aniqlikning yetishmasligi va kontekstning to‘liq yoritilmaganligi bilan bog‘liq. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy leksikani izohlashda zamonaviy lingvistik yondashuvlardan foydalanish, izohlarning chuqurligi va aniqligini oshirish zarur. Bu esa o‘zbek lug‘atshunosligining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ma’naviy leksikani izohlashda misollarning ko‘paytirilishi, ularning real nutqiy kontekstda berilishi hamda sinonimik va antonimik aloqalarning ko‘rsatib o‘tilishi izohlarning aniqligi va tushunarligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa foydalanuvchilar uchun lug‘atlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Umuman olganda, o‘zbek lug‘atshunosligida ma’naviy leksikani mukammal yoritish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va ma’naviyat tadqiqotlari uchun ham muhimdir. Shu bois, izohli lug‘atlarni takomillashtirish, ularni zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqish va

⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

boyitish kelgusidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon o‘zbek tilining boy leksik qatlamini yanada chuqurroq anglash va uni ilmiy asosda tizimlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: Universitet, 2000.
3. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
4. O‘zbek tilining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari. – Toshkent: Fan, 2018.